

Hududlarga tashrif: Muzrabot, Sherobod va Qiziriq tumanlarida g'alla va paxta maydonlari o'rganildi



G'alla o'rim-yig'imi avj pallada etayotgan hozirgi kunlarda har bir soat, har bir kun hosilni nes-nobud qilmasdan yig'ib olish muhim sanaladi. Shu sabab viloyat rahbari hududlarga tashrifi davomida o'rim-yig'im jarayonlariga jiddiy e'tibor qaratib, bu borada mas'ullarga muhim vazifalarni belgilab bermoqda.

Kecha viloyat hokimi Muzrabot, Sherobod va Qiziriq tumanlarida bo'lib, ayni jarayonlar bilan tanishdi hamda paxtaga agrotexnik ishlov berish va parvarishini olib borish bo'yicha bajarilayotgan ishlarni ko'zdan kechirdi.

Muzrabot tumaniga tashrif davomida g'alladan bo'shagan yer maydonlari kam ta'minlangan, ishsiz fuqarolarga ekin ekib, dehqonchilik qilish uchun shudgorlangan holatda hosildor urug'lar bilan ajratib berildi. Shuningdek, fermer xo'jaligi ishchilari, suvchilari, mexanizatorlar hamda boshqa hududlardan g'alla o'rimiga jalb qilingan kombayn operatorlariga sovg'alar topshirildi. O'z oldiga qo'yilgan rejani ortig'i bilan bajargan fermer xo'jaliklari tomonidan kam ta'minlangan, "daftarlar"da turgan oilalarga bug'doy tarqatildi.

G'allani belgilangan reja-grafikka asosan tizimli yig'ishtirib olish, paxta dalalalarida agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida amalga oshirib, o'g'itlash, sug'orish ishlarini belgilangan me'yor va talablar asosida amalga oshirish topshirildi.

Shuningdek, mazkur tumanlarda og'ir hudud toifasidagi mahallalarning mavjud holati ko'zdan kechirilib, mutasaddilarga infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan tadbirlar belgilab berildi.

Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati